

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2021 йил 9-сон**



**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул муҳаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул муҳаррир ўринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

### **ТАҲРИРҲАЙЪАТИ**

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д., М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова, фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник муҳаррирлар:** [Н.Юсупов](#).

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида халқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 14.09.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 9**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021**



## KOGNITIV SEMANTIKANING TADQIQOT OBYEKTI XUSUSIDA

Z.I. Rasulov

dotsent, filologiya fanlari nomzodi (BuxDU)

M.Sh.Sattorova

BuxDU magistranti

***Annotatsiya:** Tadqiqotga predmet sifatida tanlangan mavzu bugungi kunga qadar alohida o'rganilmagan. Qator ilmiy manbalarda kognitiv tilshunoslik va uning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan kognitiv semantika haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lsada, O'zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlarda kognitiv semantika borasida bajarilgan ishlar esa sanoqlidir. Shu boisdan ham yurtimiz va xorijdagi qator tadqiqotchilarning izlanishlariga tayangan holda, kognitiv semantikaning o'rganish obyektini aniqlashga harakat qildik.*

***Kalit so'zlar:** kognitiv lingvistika, kognitiv semantika, mental jarayon, konsept, kognitiv ma'no*

## ОБ ОБЪЕКТЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ СЕМАНТИКИ

З.И.Расулов

Доцент, кандидат филологических наук (Бухарский государственный университет)

М.Ш.Сатторова, Магистрант БГУ

***Аннотация:** Тема, выбранная для исследования, до сих пор не изучалась отдельно. В то время как ряд научных источников предоставляет подробную информацию о когнитивной лингвистике и когнитивной семантике, которая является одной из ее основных областей, в Узбекистане мало исследований по когнитивной семантике. Поэтому на основе исследований ряда исследователей нашей страны и зарубежья мы попытались определить объект изучения когнитивной семантики.*

***Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, когнитивная семантика, мыслительный процесс, концепция, когнитивное значение*

## CONCERNING THE OBJECT OF STUDY OF COGNITIVE SEMANTICS

Z.I.Rasulov

PhD, Candidate of Philological Sciences (Bukhara State University)

M.Sh.Sattorova, Master of Bukhara State University

***Abstract:** The topic chosen for the study has not been studied separately up to date. While a number of scientific sources provide detailed information on cognitive linguistics and cognitive semantics, which is one of its main areas, there is little research on cognitive semantics in Uzbekistan. Therefore, based on the investigations of a number of researchers of our country and abroad, we tried to determine the object of study of cognitive semantics.*



*Key words: cognitive linguistics, cognitive semantics, mental process, concept, cognitive meaning*

Kognitiv tilshunoslik inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganuvchi soha bo'lib, tilni bilim qatlamlarini tashkil etish, aks ettirish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning kognitiv mexanizmi sifatida tahlil qiladi. Kognitiv tilshunoslik 1970-80-yillarda vujudga keldi va shu vaqtdan boshlab Ch. Fillmor, G. Lakoff, R. Langaker, L. Talmi va rus olimlari E.S. Kubryakova, N.N. Boldirev, V.Z. Demjankov, V.I. Karasik, E.S. Kubryakova va boshqalar bu sohada izlanish va tadqiqotlar olib borgan. O'zbekistonda kognitiv paradigma ancha kechroq paydo bo'ldi, ammo bir qator olimlarimizning ushbu fanni rivojlantirishdagi roli katta ahamiyatga ega. Kognitiv tilshunoslik tushunchalari va muammolarini tahlil etishda Sh. Safarov, D. Ashurova, A.Mamatov va boshqa olimlar izlanishlari alohida o'rin tutadi. Natijada, ushbu fan olimlar orasida ancha bahs munozalarga sabab bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy mamlakatlar tilshunosligida kategoriyalarning kognitiv grammatikasi va kognitiv mexanizmlariga e'tibor qaratiladi, MDH mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda tilshunoslar kognitiv semantikaga ko'proq e'tibor bera boshlashdi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda inson tafakkuri faollashuvida tilning roli va unda konseptuallashuv jarayonlarini o'rganish asnosida kognitiv semantika va kognitiv stilistika masalalari birinchi o'ringa chiqdi. Kognitiv lingvistikaning turli yo'nalishlarda rivojlanayotganini hisobga olgan holda kognitiv semantika, kognitiv grammatika va kognitiv stilistika asosiy yo'nalishlar sifatida tadqiq qilinadi.

Tilshunoslikda kognitiv yondashuvning o'ziga xosligi, aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, kognitiv semantikada eng aniq namoyon bo'ladi. Kognitiv semantikaga qiziqish bir qator sabablarga asosan paydo bo'ldi: an'anaviy semantikadan farqli o'laroq, tafakkur va voqelik kategoriyalariga nisbatan ma'nolarni o'rganishda muhim tajribalar kognitiv semantikada amalga oshiriladi. Bu borada olimlar tomonidan ma'no va tushuncha, ma'no va uning ahamiyati, ma'no va funksiya o'rtasidagi bog'liqlik masalalari o'rganilib chiqilgan. (L. M. Vasilev, V. A. Zvegintsev, N. G. Komlev, E. V. Kuznetsova, M. V. Nikitin, D. N. Shmelev va boshqalar). Tabiiyki, barcha yo'nalishdagi lingvistik tadqiqotlarning o'rganish obyekti yagona – til tizimi yoki, aniqrog'i, lisoniy faoliyat va uning mahsuli hisoblanadi. Ammo ba'zi hollarda tadqiqotchilar orasida biror bir lingvistik hodisaning qaysi soha obyekti bo'lishi haqida yoki umuman bu hodisalar qay darajada til tizimiga oid bo'la olishi borasida munozarali bahs boradi. (N.Xomskiy va boshqalar). Hozirda yetarlicha ilmiy xulosalarga ega bo'lmagan kognitiv tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri kognitiv semantika aynan shunday bahs munozalar markazida turibdi.

Kognitiv tilshunoslikning tadqiq obyekti bilimlar haqidagi tasavvurlar strukturasi va ularning turli kognitiv jarayonlar (tushunish, tahlil, til axborotining qurilishi)da til imkoniyatlarini aniqlash, shu bilan birga ularning paydo bo'lishini o'rganish kabilarni o'z ichiga oladi. Mazkur fan til imkoniyatlarini (til bilimlarini) ichki kognitiv struktura, axborotni qayta ishlash tizimida kommunikativ dinamika jarayoni sifatida qarash kabi dolzarb muammolarni tadqiq qiladi. Shu o'rinda, kognitiv semantikaning o'rganish obyekti nima, degan savol tug'iladi va bunga kognitiv tilshunoslik sohasida izlanayotgan tadqiqotchilar o'z fikrlarini bildirishgan. Kognitiv tilshunoslikning semantik muammolarga e'tibor qaratishi va uning lingvistik semantikaga



uslubiy yaqinligi bir qator mualliflarning kognitiv tilshunoslik yoki grammatika haqida emas, balki kognitiv semantika haqida alohida gapirish istagini izohlaydi.

Kognitiv semantika lisoniy va lisoniy bo'lmagan (ensiklopedik) bilimlarning ko'p darajali talqin qilinishini nazarda tutadigan kontseptual ma'no nazariyasi bilan shug'ullanadi (Boldirev, 2004). Bu shuni anglatadiki, ma'nolar ushbu ma'nolarni ifodalovchi va ularning tushunchalarini ta'minlaydigan ma'lum bilimlar va bilim tuzilmalari bilan o'zaro bog'liqdir. Evans va Green fikri bilan aytganda, ma'no kontseptual tuzilmalarning aksidir va kognitiv semantika tilning kontseptual tuzilmalarni qanday kodlashi va aks ettirishiga e'tibor beradi. Bu mental jarayonlarni o'rganish, ularning tajriba va madaniyat bilan o'zaro bog'liqligini anglatadi. Kognitiv semantikaning uchinchi markaziy printsipiga asoslangan holda, ma'no ensiklopedik xususiyatga ega. Ya'ni, so'z ma'nolari aniq bir qolipga solingan to'plamlarni bildirmaydi (lug'at ko'rinishi), balki ma'lum bir kontsepsiya yoki kontseptual domenga tegishli keng bilim omborlariga "kirish nuqtalari" bo'lib xizmat qiladi. (Evans, Green, 2006).

Demak, kognitiv semantika lisoniy ma'nolarni lisoniy birliklar tomonidan ifodalangan bilim tuzilmalari va baholari asosida izohlashga qaratilgan. Lisoniy birliklarning ma'nosi tilning aslida qanday ishlatilishiga bog'liqligi tan olinadi. Tildan foydalanish nafaqat lingvistik bilimlarni (paradigmatik, sintagmatik va kontekstli bog'lanishlar), balki o'zaro ta'sir va maqsadga yo'naltirilgan aspektlar va bilimlarni ham nazarda tutadi. (D.U.Ashurova, 2018)

D.U. Ashurovaning yuqoridagi fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, kognitiv semantika birinchi navbatda lisoniy ma'nolarning kontseptual tabiati, ularning kontseptual tuzilmalar bilan aloqalari, inson bilimlari va tajribalarini aks ettiradi.

So'z semantikasi bilan tafakkur va idrokning bilish jarayonlari o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Til birliklari semantikasi - bu ona tilida so'zlashuvchilar ongida tushunchalar mazmuni haqida ma'lumot olish manbalaridan biridir va so'z lingvistik belgi sifatida -"bu inson uchun aqliy faoliyat birligi tushunchasini ochadigan kalit" / Popova, Sternin, 1999: 21 /.

O'zbek tilshunosligida kognitiv lingvistika sohasida izlanish olib borgan Shahriyor Safarov esa o'z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: kognitiv tilshunoslikning obyektini lisoniy tafakkur jarayoni tashkil qiladi, bunday yondashuvda tilda jamlangan bilim zaxirasi ma'nodor kategoriyalar to'plamidan iborat ekanligi aniq bo'lib, ularning voqelik tajribasida tug'iladigan yangi ma'lumotlarning konseptuallashtirishdagi vazifasi ravshanlashadi (Sh.Safarov,2013). Aytilganlar kognitiv tahlilda semantik strukturaning birlamchi ekanligidan guvohlik beradi. Ma'noga murojaat qilmasdan turib, narsa hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni, ularni guruhlashtiruvchi va umumlashtiruvchi belgilarni ajratish mumkin emas.

Har holda ma'no faqat kognitiv tilshunoslik " qaramog'i" dagi hodisa emas, tilning vazifaviy xususiyatlari bilan mashg'ul bo'lgan har bir soha ushbu hodisa bilan shug'ullanadi. Hatto formal semantika ham ma'no tadqiqini maqsad qilgan yo'nalishdir. U holda kognitiv semantikaning boshqalardan farqi nimada?

Ushbu tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi hisoblangan kognitiv semantikaning o'rganish obyektini aniqlashtirishda, semantikaning an'anaviy va kognitiv tahlilini qiyoslamochimiz. Asosiy farq so'zlarning ma'nosi qaysi turdagi mohiyatga tegishliligidadir. Semantikaning an'anaviy tahliliga asosan, ifoda ma'nosi bu borliqdan tashqarida mavjud bo'lgan narsadir.



Kognitiv semantikada esa ma'no mental jarayonlar bilan bog'liqlikda aniqlanadi. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi shundaki, har qanday ma'no tafakkur bilan aloqador holda yuzaga keladigan jarayondir. Zero, mazmun lisoniy bilimning tafakkur qobiliyati bilan uchrashuvda yuzaga keladigan hodisadir va uni tushunish mental tuzilmalarining faollashuvini hamda ularning lisoniy-kognitiv axborot bilan to'ldirilishini taqozo etadi (Tannen 1993, D. Ashurova, 2012). Semantika fani lingvistik ifoda birliklarini kognitiv tuzilmalarga xaritalash sifatida qaraladi. Kognitiv semantika til obyektiv voqelikga emas, balki tushunchalarga murojaat qiladi, degan pozitsiyani qabul qiladi: so'zlar va boshqa lingvistik birliklar bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy ma'nolar, fikrlar va g'oyalar bilan bog'liq, deb qaraladi. R.M. Frumkina fikricha, kognitiv semantika kognitiv psixologiya bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv semantika tilning ma'nosini insonlar miyasida qanday aks etishiga qarab belgilaydi yoki ifodalaydi. An'anaviy semantikadan farqli ravishda, kognitiv semantika lingvistik voqea-hodisalarni ekstra-lingvistik faktorlar, ya'ni, asosan psixologik va ijtimoiy-madaniy faktorlarga tayanib o'rganadi.

Bizning fikrimizcha, kognitiv semantikaning tadqiqot obyekti shaxsiy tushunishga asoslangan, tafakkurda saqlanuvchi tushunchaga mos keladigan kognitiv ma'nodir. Zero, ma'no konseptualdir, ya'ni u haqiqiy dunyodagi narsaning ifodasi bilan bog'liqdir. Shu bilan birgalikda, u inson ongidagi obyekt yoki g'oya bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni kishilar tomonidan bitta narsa bir xil tushunilishi mumkin emas. Shuni ta'kidlash joizki, ma'no tushunilishi nutq so'zlovchining shaxsiy tajribasiga bog'liq. Polyak etnolingvisti Yeji Bartminskiy ta'kidlaganidek, so'z ma'nosining lug'aviy izohi voqelik bo'lagi haqidagi hikoya bo'lishi darkor (Y.Bartminskiy, 2005). Bunga erishishning yagona yo'li ma'no izohiga kognitiv tavsif ko'rinishini berishdir. Bu usuldagi tavsifda voqelik, predmet – hodisalar anglatgan ma'noning ma'lum millat, madaniyat vakillari, til sohiblari tomonidan idrok etilishi bilan bog'liq holatlar yanada konkretlashishida muhim rol o'ynaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Evans V & Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburg: Edinburg Universiteti nashriyoti, 2006.
2. Boldirev N.N. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии. - Tambov, 2001.
3. Safarov Sh. Semantika.-T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
4. Ashurova D.U, Galieva M.R. Cognitive Linguistics [Kognitiv lingvistika]. Ўқув қўлланма.– Тошкент: 2018.



**МУНДАРИЖА**

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ**

**01.00.00**

**ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ**

**PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

1	<b>Гельдер фазосида аралаш каср тартибли дифференциал операторлар</b> Маматов Т.Ю .....	3
2	<b>Yechiluvchan leybnits algebrasining to'liqligi haqida</b> Mamadaliyev O'.X, Qurbonov A.X, Satiboldiyev I.R .....	10
3	<b>Кватернион сонларнинг ҳақиқий тасвирлари группаси таъсирига нисбатан йўлларнинг эквивалентлик масаласи</b> Мўминов Қ. Қ, Жўрабоев С. С .....	14
4	<b>Каср тартибли чизиқли оддий бир жинсли бўлмаган дифференциал тенглама учун қоши типидagi масала</b> Ташмирзаев Ю.У, Хасанов Ш.М .....	22

**КИМЁ ФАНЛАРИ**

**02.00.00**

**ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ**

**CHEMICAL SCIENCES**

5	<b>Таркибида фосфор, азот ва металл сақловчи д-60 маркали олигомернинг физик-кимёвий хоссаларини ўрганиш</b> Набиев Д. А, Тураев Х.Х, Джалилов А. Т .....	27
6	<b>Углеродди тўлдирувчиларни полиэтиленнинг электрофизик, механик ва реологик хоссаларига таъсири</b> Ниезкулов Ш.Ш, Каримов М.У, Джалилов А.Т .....	31
7	<b>Винилацетилен иштирокида винил эфирлар олиш</b> Ахмедов В, Олимов Б, Ғафурова Г .....	37
8	<b>Янги турдаги гибрид композитларнинг олиниши</b> Остонов Ф. И, Ахмедов В.Н .....	44
9	<b>Фосфат чиқиндиси - фосфорит кукунларини нитрат кислотали қайта ишлаш</b> Абдуллажанов О.А, Султонов Б.Э, Нодиров А.А, Холматов Д.С, Тухтаходжаева Н.А.	49
10	<b>Изобутил каучути асосида олинган олеогелларнинг термик таҳлили</b> Хусанова М.Ф, Ширинов Шавкат Д, Қиёмов Ш.Н, Бекназаров Х.С, Джалилов А.Т	56
11	<b>In vitro тажрибаларда глицирризин кислотаси, ментол ва улар асосида олинган гк:м (2:1), гк:м (4:1) ва гк:м (9:1) супрамолекуляр бирикмаларни каламуш митохондрия функционал фаоллигига таъсири</b> Еттибаева Л.А., Абдурахманова У.К., Матчанов А.Д., Алланазарова Д.М., Алимбоев Д.А.....	60



12	<b>Фурфуrol олиш технологияси</b> Назирташова Р.М, Киргизов Ш. М .....	65
13	<b>Мис, калций ва терефтал кислота асосида синтез қилинган бирикманинг иқ-спектроскопияси ва термогравиметрик таҳлили</b> Набиев Д.А, Тураев Х.Х, Джалилов А.Т .....	71
14	<b>Катионитлар ва анионитлар асосида утлерод гемосорбентларини синтез қилиш ва физик-кимёвий хоссаларини ўрганиш</b> Ортиқов Н. Т, Джалилов А.Т, Каримов М.У.....	76
15	<b>Металл ацетатлар ёрдамида полимерларнинг физик-механик хоссаларини яхшилаш</b> Бозорова Н.Х, Абдураззоқов С.Э, Облобердиев С.Б. ....	81
16	<b>Синтез и исследование пластификатора диоктил терефталата на основе технической терефталевой кислоты</b> Соатов С.У, Абдукаримов М. М, Согтикулов Э. С, Каримов М.У .....	85
17	<b>Синтез полимер сорбента на основе дитиофосфатов</b> Суюнов Ж.Р., Тураев Х.Х., Касимов Ш.А., Джалилов А.Т.....	91
18	<b>Tarkibida metall tutgan yong'inbardosh qavaruqlanuvchi qoplamalarni fizik-kimyoviy xususiyatlarni tadqiq etish</b> Voxidov E.A, Nurqulov F.N, Djalilov A.T.....	98
19	<b>Влияние наполнителей физико-механических свойств композиционных материалов на основе полипропилена</b> Умаров Ш.Ш, Тураев Х.Х, Тожиев П.Ж, Джалилов А.Т .....	105

**03.00.00**      **БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**  
**БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**BIOLOGICAL SCIENCES**

20	<b>Qurama tog' tizmasining qalpoqchali (Agaricaceae) zamburug'lari</b> Хамрохо'jayev A. R, Abdurazaqov A.A Gafforov Y. Sh, Ikromov S. A, Mamadaminov R. R .....	110
21	<b>Ананас (<i>Ananas comosus (L.) Merr</i>) ўсимлигида фотосинтетик пигментлар миқдори</b> Базарова Р.Ш, Абдикулов З.У, Кулиев Т.Х .....	114
22	<b>Взанинг турли генотипли оила, тизма ва навлари иштирокидаги янги дурагай ўсимликларида айрим морфо-хўжалик белгиларининг ирсийланиши</b> Наркизилова Г.Н, Бобоев С.Ғ, Мирахмедов М.С, Назарбаев Х.Қ .....	119
23	<b>Вза уак популяциясининг бошланғич намуналарини қурғоқчиликка чидамлилиқ билан ассоциацияланган днк маркерлар ёрдамида генотиплаш</b> Холмурадова М.М, Абдукаримов Ш.С, Кушанов Ф.Н .....	126
24	<b>Мутант л-4 тизмани генетик табиати ва баргларда хлорофилл миқдорини ирсийланиши</b> Турсунов Я.Б .....	133
25	<b>Баҳор-ёз даврида оқдарё сув омбори сувўтларининг биологик хилма-хиллиги</b> Алимжанова Х, Ражабова М .....	138





26	<b>Ўзбекистонда тарқалган <i>Phyllactinia lev. (erysipheae)</i> туркуми турларига оид дастлабки маълумотлар</b> Тешабоева.Ш. А, Исломиддинов З.Ш, Абдуразаков А. А, Холмурадова.Т.Н,Ғаффоров Ю.Ш .....	144
27	<b><i>Aegilops l.</i> туркуми айрим турлари уруғларининг морфологик белгилари</b> Қурбонова М.З, Эрматова Г.З, Имирсинова А. А .....	152

07.00.00

**ТАРИХ ФАҢЛАРИ  
ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ  
HISTORICAL SCIENCES**

28	<b>Икки эл қаҳрамони</b> Тишпабаева Л.А .....	158
29		

08.00.00

**ИҚТИСОДИЁТ ФАҢЛАРИ  
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ  
ECONOMIC SCIENCES**

30	<b>Foreign experience of state support for the development of small business</b> Қурпаяниди К. I .....	162
31	<b>Иновацион иқтисодиётда аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш истиқболлари</b> Ахунова М. Х .....	166

09.00.00

**ФАЛСАФА ФАҢЛАРИ  
ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ  
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

32	<b>Баҳовуддин Валад ва Жалолиддин Румийнинг фалсафий таълимотидаги ўзаро диалектик боғлиқликлар</b> Чўлиева В.Э .....	172
33	<b>G'azolliiy, Forobiy va Ibn Sino qarashlarida komil inson konsepsiyasi</b> Эшпулатов И.С .....	178
34	<b>Salomatlik fenomeni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili</b> Iskandarov N.Sh .....	184
35	<b>Abu Ali Ibn Sinoning "Al-Ishorat va At-Tanbihot" asaridagi "Oriflar maqomi"ga bergan ta'rifi va uning falsafiy tahlili</b> Juraev Sh.S .....	187
36	<b>Учинчи ренесанснинг пойдевори маънавий юксалишдир</b> Найманова Д.Х .....	191
37	<b>Barqaror taraqqiyot:tizimli tahlil</b> Pulatov J.N .....	198
38	<b>Milliy g'oya tizimi tarkibiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari</b> Sarayev V.O .....	203



39	<b>National and universal dialectics in the cultural development of society</b> Turdiyev B.S .....	208
40	<b>Creativity or innovation let's unite each other in the learning process!</b> Boyjigitov Sh.....	213
41	<b>Абу Райхон Беруний гносеологик қарашлари замонавий фалсафий-методологик талқинда</b> Ғаффарова Г .....	217
42	<b>Ислом фалсафасида интеллектуал фаолият мезонларига доир қарашлар таҳлили</b> Сиддиқов И.Б .....	224
43	<b>Муסיқанинг фалсафий-ирфоний таҳлили</b> Исақова З.Р .....	230
44	<b>Давлат ва жамият бошқарувида кадрлар инновацион фаолиятини юксалтиришнинг ижтимоий-маданий хусусиятлари</b> Юлдашев С. У .....	236
45	<b>Абу Ҳомид Ғаззолида ўз-ўзини билиш муаммоси</b> Қодиров Д. Ҳ.....	244

**10.00.00**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**  
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PHILOLOGICAL SCIENCES**

46	<b>Similarities and differences between semantics and pragmatics</b> Matkarimova B. Kh, Usmanova H. Sh .....	252
47	<b>Тил структурасини нутқни услубий жиҳатдан ташкил этишдаги роли.</b> Ниязова А.А, Жолдасова Г. ....	256
48	<b>Ўзбек ва инглиз тилларида паремия қўлловчиларнинг дискурсив хусусиятлари</b> Asronova M. M .....	265
49	<b>Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида гуманизм таҳлили</b> Бахриддинов М.М, Турғунов Д.Б .....	268
50	<b>O'zbek tilida antroponimlar</b> Mamatkulova B. R .....	272
51	<b>Safar motivi va uning ertak syujetida tutgan o'рни</b> Mashrapova G.A .....	280
52	<b>Kognitiv semantikaning tadqiqot obyekti xususida</b> Rasulov Z.I, Sattorova M.Sh .....	284
53	<b>O'zbek xalq maqollarida arxaik birliklarning qo'llanishiga doir mulohazalar</b> Madiyorova V.Q .....	288
54	<b>Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarining forsiy lug'atlardagi ko'rinishlari</b> Muhammad H.N .....	292